



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
PREZIDENTI HUZURIDAGI  
STATISTIKA AGENTLIGI**

**2023- YILNING YANVAR-MART OYLARIDA  
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA  
YALPI ICHKI MAHSULOTNI  
ISHLAB CHIQRISH**


***Toshkent-2023***



**2019-2023- yillarning yanvar-mart oylarida O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha yalpi ichki mahsulot (YAIM)<sup>1</sup>**  
(joriy narxlarda, mlrd. so‘m)




**2019-2023- yillarning yanvar-mart oylarida YAIMning deflyator indeksi**  
(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2023- yilning yanvar-martida O‘zbekiston Respublikasi YAIMi hajmi joriy narxlarda 198 483,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2022- yilning yanvar-marti bilan taqqoslaganda 5,5 % ga o‘tdi. YAIM deflyator indeksi 2022- yilning yanvar-martidagi narxlarga nisbatan 112,6 % ni tashkil etdi.

**2019-2023- yillarning yanvar-mart oylarida YAIMning o‘shish sur‘atlari**  
(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da)




**i** **Yalpi ichki mahsulot (YAIM)** iqtisodiy rezident-birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalovchi va ushbu birliklar tomonidan yakuniy foydalanish uchun ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymati orqali o‘lchanadigan Milliy hisoblar tizimi (MHT)ning asosiy ko‘rsatkichlaridan biridir.

<sup>1</sup>Bu yerda va keyingi o‘rinlarda 2019-2022- yillarning yanvar-mart oylari uchun aniqlik kiritilgan ma’lumotlar keltirilgan.



## 2019-2023- yillarning yanvar-mart oylarida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIM (joriy narxlarda, trln. so'm)




■ Tovarlar ishlab chiqarish ■ Xizmatlar ko'rsatish ■ Mahsulotlarga sof soliqlar



**YAIM fizik hajm indeksi (o'sish sur'ati)** doimiy narxlarda, ya'ni o'tgan yilning mos davri narxlarida hisoblangan hisobot davri YAIM (real YAIM)ni joriy narxlardagi o'tgan yilning mos davri YAIMga nisbati orqali hisoblanadi.

## 2019-2023- yillarning yanvar-mart oylarida O'zbekiston Respublikasi YAIMi (mlrd. AQSH dollarida)




Joriy davrda o'rtacha almashuv kursi bo'yicha hisoblangan nominal YAIM hajmi 17 501,1 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.



**Ma'lumot uchun:** 2023- yilning yanvar-mart oylarida AQSH dollarining so'mga nisbatan o'rtacha rasmiy kursi 11 341,2 so'm, 2022- yilning yanvar-mart oylarida 10 965,8 so'm, 2021- yilning yanvar-mart oylarida 10 506,1 so'm, 2020- yilning yanvar-mart oylarida 9 529,6 so'm, 2019- yilning yanvar-mart oylarida 8 378,3 so'mga teng bo'lgan.

## 2019-2023- yillarning yanvar-mart oylarida YAIM o'lishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)




YAIM o'lishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 0,4 f.p., sanoat tarmog'i – 1,1 f.p., qurilish tarmog'i – 0,3 f.p. va xizmat ko'rsatish tarmog'i 3,1 f.p. ijobiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'lishi hisobiga YAIM 0,6 f.p. ga ko'paydi.


Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat hajmi YAIM umumiy hajmining 95,0 % ini tashkil etdi va 5,4 % ga o'sdi (YAIM mutlaq o'lishiga ta'siri 4,9 foiz punktni tashkil etdi). Mahsulotlarga sof soliqlarning YAIM tarkibidagi ulushi 5,0 % ni tashkil etdi va 2022- yilning yanvar-mart oylari bilan taqqoslaganda 6,5 % ga o'sdi (YAIM mutlaq o'lishiga ta'siri – 0,6 f.p.).



2019-2023- yillarning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAIM tarkibi (jamiga nisbatan % da)




2023- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, YAIM tarkibida katta bo'lmagan o'zgarishlar kuzatildi. YAIM (YAQQ) tarkibida xizmatlar sohasining ulushi 49,3 % dan 53,1 % ga oshdi. Shu bilan birga, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining ulushi 12,8 % dan 12,5 % ga, sanoatning ulushi 31,1 % dan 28,2 % ga, qurilish tarmog'ining ulushi 6,8 % dan 6,2 % ga kamaydi.







## 2019-2023- yillarning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga YAIM (joriy narxlarda, ming so‘m)




Quyida keltirilgan diagrammadan ko‘rinib turganidek, 2023-yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga YAIM hajminig real o‘shishi 2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 3,3 % ni, 2019- yilning mos davriga nisbatan esa 12,5 % ni tashkil etdi.

**i** **Aholi jon boshiga YAIM (YAHM)** muayyan davrda joriy narxlardagi YAIM (YAHM) hajmini mamlakat (hudud)ning o‘rtacha aholisi soniga bo‘lish orqali aniqlanadi.

2023- yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAIM hajmi joriy narxlarda 5 496,4 ming so‘mni (yoki 484,6 AQSH dollari ekvivalentida) tashkil etdi.

**i** **Ma‘lumot uchun:** O‘zbekiston Respublikasi doimiy aholisining o‘rtacha soni 2019- yilning yanvar-martida 33 316,1 ming kishi, 2020- yilning yanvar-martida 33 970,8 ming kishi, 2021- yilning yanvar-martida 34 627,2 ming kishi, 2022- yilning yanvar-martida 35 352,5 ming kishi va 2023- yilning yanvar-martida 36 111,4 ming kishini tashkil etgan.



## 2019-2023- yillarning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga YAIMning o‘shish sur‘atlari (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)





# QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK XO‘JALIGINING YALPI QO‘SHILGAN QIYMATI


## 2019-2023- yillarning yanvar-mart oylarida yaratilgan qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining yalpi qo‘shilgan qiymati (joriy narxlarda, mlrd. so‘m)



2023- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko‘ra, **qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida** 3,2 % (2022- yilning yanvar-martida – 2,7 %, 2021- yilning yanvar-martida – 3,0 %, 2020- yilning yanvar-martida – 3,1 %, 2019- yilning yanvar-martida – 2,4 %) darajasida ijobiy o‘shish qayd etildi.

Ushbu ijobiy o‘shish sur‘atlari chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishning 3,6 % (2022- yilning yanvar-martida – 2,4 %, 2021- yilning yanvar-martida – 2,9 %, 2020- yilning yanvar-martida – 3,3 %, 2019- yilning yanvar-martida – 3,4 %)ga o‘shishi bilan bog‘liq. Shu bilan birga, joriy davrda dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish esa 2,3 % (2022- yilning yanvar-martida 8,5 % ga o‘shish, 2021- yilning yanvar-martida 5,0 % ga o‘shish, 2020- yilning yanvar-martida – 2,5 % ga o‘shish, 2019- yilning yanvar-martida – 0,6 % ga o‘shish)ga kamaydi.

## 2019-2023- yillarning yanvar-mart oylarida yaratilgan qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining yalpi qo‘shilgan qiymati o‘shish sur‘atlari (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



# SANOAT TARMOG'INING YALPI QO'SHILGAN QIYMATI



## 2019-2023- yillarning yanvar-mart oylarida sanoat tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati

2023

53 143,4

2022

47 118,7

2021

38 598,8

2020

33 634,7

2019

27 591,1

Hajmi, mlrd. so'm

2023- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, **sanoat tarmog'i** qo'shilgan qiymatida 4,1 % ga o'sish kuzatilgan. Ushbu tarmoqdagi ijobiy dinamika, asosan tog'kon sanoati va ochiq konlarni ishlash tarmog'ining qo'shilgan qiymati 2,0 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning 4,3 % ga hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash tarmog'ining 5,4 % ga o'sishi hisobiga ta'minlandi. Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish tarmog'ida ham 4,6 % ga ijobiy o'sish qayd etildi.

2021

104,2

2020

104,1

2022

104,8

2019

105,2

2023

104,1

O'sish  
sur'ati, %  
da







# SANOAT TARMOG'INING YALPI QO'SHILGAN QIYMATI



## 2019-2023- yillarning yanvar-mart oylarida sanoat tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati dinamikasi




## 2019-2023- yillarning yanvar-mart oylarida sanoat tarmog'i yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi (jamiga nisbatan % da)





## QURILISH TARMOG'INING YALPI QO'SHILGAN QIYMATI

2019-2023- yillarning yanvar-mart oylarida  
qurilish tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati



2022- yilning yanvar-mart oylari bilan taqqoslaganda 2023- yilning yanvar-mart oylarida **qurilish ishlari** hajmi 4,5 % ga o'sdi. Jumladan, o'sish (kamayish) sur'atlari bino va inshootlar qurilishida 103,4 % ni, fuqarolik obyektlari qurilishida 115,0 % ni va ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarida 96,0 % ni tashkil etdi.

### 2023- yilning yanvar-mart oylarida qurilish tarmog'i yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi (jamiga nisbatan % da)

68,9

Binolar va inshootlar  
qurish

19,1

Fuqarolik obyektlarini  
qurish

12,0

Ixtisoslashtirilgan  
qurilish  
ishlari



**Ma'lumot uchun:** 2023- yilning yanvar-martida qurilish ishlari hajmi 27 564,6 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlarining umumiy hajmida yirik qurilish tashkilotlarining ulushi 23,4 %, kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi 59,3 %, jismoniy shaxslarning ulushi 17,3 % ni tashkil etdi.




# QURILISH TARMOG'INING YALPI QO'SHILGAN QIYMATI


2019-2023- yillarning yanvar-mart oylarida qurilish tarmog'li yalpi qo'shilgan qiymati dinamikasi




## Binolar va inshootlar qurish



## Fuqarolik obyektlarini qurish



## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari



Hajmi, mlrd. so'm




O'sish (kamayish) sur'ati, % da

# XIZMATLAR SOHASINING YALPI QO'SHILGAN QIYMATI

## 2019-2023- yillarning yanvar-mart oylarida yaratilgan xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati

Hajmi, mlrd. so'm

O'sish sur'ati,  
% da



## 2019-2023- yillarning yanvar-mart oylarida xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi (jamiga nisbatan % da)



2023- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, **xizmat ko'rsatish sohasining** yalpi qo'shilgan qiymati hajmi 100 155,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022- yilning yanvar-martiga nisbatan 7,0 % ga o'sdi. Shu jumladan, savdo xizmatlari 4,3 % ga, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar 4,2 % ga, tashish va saqlash xizmatlari 10,0 % ga, axborot va aloqa xizmatlari 20,3 % ga, boshqa xizmatlar 6,3 % ga o'sdi.

- Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- Tashish va saqlash, axborot va aloqa
- Boshqa xizmat tarmoqlari



## SAVDO TARMOG'INING YALPI QO'SHILGAN QIYMATI

2019-2023- yillarning yanvar-mart oylarida  
yaratilgan savdo tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati




2019-2023- yillarning yanvar-mart oylarida savdo tarmog'ining  
yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi dinamikasi (jamiga nisbatan % da)

Avtotransport vositalarining ulgurji  
va chakana savdosi (ularni  
ta'mirlashni qo'shgan holda)

Ulgurji savdo (avtotransport  
vositalari savdosidan tashqari)

Chakana savdo (avtotransport  
vositalari savdosidan tashqari)




2023- yilning yanvar-mart oylarida **savdo** tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibida eng katta ulush chakana savdo (avtotransport vositalari savdosidan tashqari)ga to'g'ri keldi va 66,5 % ni tashkil etdi. Ulgurji savdo (avtotransport vositalari savdosidan tashqari)ning ulushi 26,8 % ni, avtotransport vositalarining ulgurji va chakana savdosi hamda ularni ta'mirlashning ulushi 6,7 % ni tashkil qildi.





# TASHISH VA SAQLASH TARMOG'INING YALPI QO'SHILGAN QIYMATI


## 2019-2022- yillarning yanvar-mart oylarida yaratilgan tashish va saqlash tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati



2023- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, **tashish va saqlash tarmog'ining** O'zbekiston Respublikasi YAIMidagi ulushi 6,4 % ni tashkil etdi.

Tashish va saqlash tarmog'ining qo'shilgan qiymati tarkibida eng ko'p ulush avtomobil transportiga to'g'ri keldi va 52,4 % ni tashkil etdi.

Mazkur tarmoq umumiy qo'shilgan qiymatida quvur transportining ulushi 18,6 %, temir yo'l transportining ulushi 10,1 %, yordamchi transport faoliyatining ulushi 11,3 %, havo transportining ulushi 7,6 % ni tashkil etdi.





# TASHISH VA SAQLASH TARMOG'INING YALPI QO'SHILGAN QIYMATI


2019-2023- yillarning yanvar-mart oylarida tashish va saqlash tarmog'ining qo'shilgan qiymati tarkibi  
(jamiga nisbatan % da)






# AXBOROT VA ALOQA TARMOG'INING YALPI QO'SHILGAN QIYMATI

2019-2023- yillarning yanvar-mart oylarida yaratilgan  
axborot va aloqa tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati



2019-2023- yillarning yanvar-mart  
oylarida axborot va aloqa  
tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati  
tarkibi (jamiga nisbatan % da)



2023- yilning yanvar-martida  
**axborot va aloqa tarmog'ining**  
mamlakat iqtisodiyotidagi ulushi  
2,1 % ni tashkil etdi.

Mazkur tarmoq yalpi qo'shilgan  
qiymati tarkibida asosiy ulush aloqa  
xizmatlariga (simli va mobil aloqa  
xizmatlari, internet tarmog'i va  
boshqalarga) to'g'ri keldi va 62,6 % ni  
tashkil etdi.

Tarmoqda yaratilgan yalpi  
qo'shilgan qiymatning qolgan  
37,4 foizi axborot va aloqaning  
boshqa tarmoqlari (nashriyot faoliyati,  
kompyuter dasturlashtirish sohasidagi  
faoliyat, dasturlar yaratish bo'yicha  
faoliyat, teleko'rsatuv va radio-  
eshittirish v.b.) hissasiga to'g'ri keldi.



# AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI XIZMATLARINING YALPI QO'SHILGAN QIYMATI

2023- yilning yanvar-martida **axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) xizmatlarining** mamlakat iqtisodiyotidagi ulushi 2,0 % ni tashkil etdi.

Tarmoqda yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat hajmining 66,7 foizi aloqa xizmatlari, 19,2 foizi kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlar, 7,5 foizi ma'lumotlarni joylashtirish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, Web-portallar, 4,4 foizi kompyuterlar va aloqa uskunalari ta'mirlash xizmatlari, qolgan 2,2 foizi dasturiy ta'minotni chiqarish hissasiga to'g'ri kelgan.

2021-2023- yillarning yanvar-mart oylarida AKT xizmatlarining yalpi qo'shilgan qiymati, mlrd. so'm



2021-2023- yillarning yanvar-mart oylarida AKT xizmatlarining YAIMdagi ulushi, YAQQga nisbatan % da




2021

2022

2023



## 2023- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik (biznes)da yaratilgan YAQQning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha tarkibi (jamiga nisbatan % da)



2023- yilning yanvar-mart oylari yakunlari bo‘yicha **kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari** tomonidan 82 277,1 mlrd. so‘m miqdorida qo‘shilgan qiymat yoki iqtisodiyotdagi yalpi qo‘shilgan qiymatning 43,6 % i yaratilgan. Shundan 27,4 % i qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi, 14,9 % i sanoat, 11,2 % i qurilish tarmoqlari va 46,5 % i xizmatlar sohasiga to‘g‘ri keldi.

## 2023- yilning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAIMda kichik tadbirkorlik (biznes)ning ulushi (YAQQga nisbatan % da)

Kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari ulushi iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 96,1 %, qurilishda 78,2 %, xizmatlar sohasida 38,2 % va sanoatda 23,1 % ni tashkil etdi.

